

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



“DINSHUNOSLIK”

FANINING  
O‘QUV DASTURI

Ta‘lim  
yo‘nalishi:

Barcha nomutaxassis yo‘nalishlar talabalari uchun

Toshkent – 2023

<b>Fan/modul kodi</b> <b>DINB204</b>	<b>O'quv yili</b> 2023-2024	<b>Semestr</b> 4	<b>ECTS - Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Dinshunoslik</b>	60	60	120

### **I.Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talaba-yoshlar tafakkurida dinning mazmun-mohiyati, dunyoning diniy manzarasi, diniy va falsafiy qarashlarning o'zaro bog'liqligi, globallashtirish va diniy jaryonlari hamda zamonaviy diniy harakatlar, diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmning davlat va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta'sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – diniy ta'limotlarning tarixi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish, dinning asl mazmuni bilan uning soxta talqinlarini farqlash malakasini shakllantirish;

- ekstremizm va terroizmning paydo bo'lish sabablarini aniqlash, va uning oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish;

- diniy va dunyoviy jarayonlarga nisbatan mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish,

- diniy aqidaparastlikning profilaktikasi va unga qarshi kurashda egallangan nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo'llash,

- talabaning mustaqil ta'lim olishda egallangan bilimlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu. Din ijtimoiy madaniyat hodisa sifatidagi ahamiyati.**

Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, diniy e'tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati. Din dunyoqarash shakli va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri. Dinlarning tasnifi. Dinlar paydo bo'lishining geografik va xronologik tasnifi. Diniy e'tiqodlarning evolyutsiyasi: politeizm, genoteizm, monoteizm. Ibtidoiy e'tiqodlar, milliy dinlar, jahon dinlarining shakllanishi va o'ziga xos jihatlari. Diniy ta'limotlarda xudo va g'ayritabiiy kuchlar haqidagi e'tiqodlar dinamikasi. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari. Dinshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqasi. Ijtimoiy muhit va diniy an'analarning shaxsning diniy e'tiqodi va individual tarbiyasiga ta'siri. Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi: tipologik, qiyosiy, tarkibiy-funksional, genetik tahlil. Qiyosiy dinshunoslikning metodlari.

## **2-mavzu. Milliy dinlar**

Yahudiylik dinining yuzaga kelishi. Tavrot yahudiylik dinining muqaddas kitobi. Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari. Markaziy Osiyoda yahudiylik. Hinduizm dinining mazmun mohiyati. Vedalar. Braxmanlik. Hinduiylik ta'limoti va xudolar panteoni. Jayniylik. Sikxiylik ta'limoti va manbalari. Konfutsiylik ta'limoti va uning Xitoy milliy diniga aylanish jarayonlari. Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daochilik – falsafiy ta'limot. “Dao” tushunchasi tahlili. Sintoiylik. Yapon xalqi an'analari. Kami kulti.

## **3-mavzu: Zardushtiylik dini**

Zardushtiylik dinining vujudga kelishi. Zardushtiylik shakllangan tarixiy sharoit. Zardushtiylik ta'limoti. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal tamoyili. Govmard va shoh Yima. Zardushtiylikning teologik tizimi va diniy marosimlari. Zardushtiylikda tabiatning ulug'lanishi. Zardushtiylikning diniy iyerarxiyasi. “Avesto” matnlari. Avestoning tarkibiy tuzilishi.

## **4-mavzu. Buddaviylik dini**

Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari. Kushonlar imperiyasida buddaviylik dinining davlat dini darajasiga ko'tarilishi. An'anaviy buddaviylik. Tripitakan va buddaylikning muqaddas manbalari. O'rta asrlarda Dzen buddaviylik ta'limoti. Chan buddizmning Xitoyda rivojlanishi. Modern buddaviylik. Global buddaviylik. Hozirgi davrda buddaviylikning rivojlanishi. Tibetning buddaviylik maktabi va rohib Dalay Lamaning faoliyati. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.

## **5-mavzu. Xristianlik dini**

Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari. Katolitsizm va pravoslavlik dini yo'nalishlarining o'zaro farqli tomonlari. Protestantlik harakatining shakllanishi va rivojlanishi. Rim-katolik cherkovi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Sharqiy Yevropa pravoslavlik avtokefal cherkovlari. XV asrda Yevropada reformatorlik g'oyalari (Anglikan, lyuteran, kalvinizm cherkovlari va h.k.) Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o'rni. O'zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi va hozirgi zamon.

## **6-mavzu. Islom dini**

Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar. Payg'ambarlik va vahiyning talqini. Dastlabki musulmonlar jamoasining tashkil topishi. Hijrat va Madinada tashkil etilgan ilk islom davlatida boshqaruv shakli. Tavhid aqidasi. Islom dinining besh sharti. Xalifalikning tuzilishi va islom dini tarqalishining tarixi. Roshid xalifalar hukumronligi davridagi islohotlarning mohiyati. Ummaviylar va abbosiylar hukumronligi davrida dinga munosabat. Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi. Qur'on, sura va oyat

tushunchalarining ma'nosi, qur'onshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi. Hadis tushunchasining mohiyati, hadislarning turlari va tasnifi. Buyuk muhaddislarning hayoti va ijodi. O'zbekistonda hadisshunoslikning rivoji. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta'limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta'siri. Hozirgi davrda islom sivilizasiyasining ahamiyati.

### **7-mavzu. Islom dinining aqidaviy yo'nalishlari va maktablari**

Kalom ilmining shakllanishi. Ilk aqidaviy adabiyotlarning islom dinining qabul qilinishidagi o'rni. Alloh sifatleri haqidagi g'oyalar. Esxatologiyaning mohiyati: qiyomat va oxirat dunyosi. Islomda iymon, taqdir, rizq tushunchalarining talqini. Noan'anaviy e'tiqodlar: xorijiy, mu'taziliya, qarmatiya harakatlari.

Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari. Sunniylik va shialik yo'nalishlarining paydo bo'lishi va ular e'tiqodidagi farqlar. Moturidiylik va ash'ariylik maktablari.

### **8 – mavzu Markaziy Osiyo tarixida Xanafiya mazhabining o'rni**

Hanafiylilik mazhabining asoschisi Abu Hanifa hayoti va ta'limoti. Xanafiya mo'tadil islom tamoyili va bag'rikenglik g'oyalari. Hanafiyaning islom fiqxi tarixidagi o'rni. Movarounnahrda hanafiy mazhabi va Markaziy Osiyo faqihlari. Movarounnahrda fiqh ilmining mashhur namoyandalari. Hanafiy mazhabi rivojida Markaziy Osiyo faqihlarining roli va hissasi. Islom huquqi (fiqhi) va uning taraqqiyot bosqichlari. Islom huquqi asosiy atamallari. Islom huquqi manbalari. Qur'on, sunna, ijmo va qiyos, masolihul-mursala, istihson va urf. Xanafiya mazhabining islom tasavvufi bilan bog'liqlik asoslari. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji. Yusuf Hamadoniy. Abduxoliq G'ijduvoni. Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarining shakllanishi. Tariqatchilikning zamonaviy ko'rinishlari.

### **9 - mavzu. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar**

Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi. Dinning jamiyat integratsiyasi va barqarorligiga ta'siri. O'zbekistonda konfessional jarayonlarning asosiy yo'nalishlari. Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me'yorlarga moslashuvining ahamiyati. Dunyo mamlakatlari va O'zbekiston konstitutsiyasida vijdon erkinligi huquqining ifodasi. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifi. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. (Identifikatsion model, separatsion model va kooperatsion modellar). Sekulyarlashuv jarayoni. O'zbekistonning davlat sifatida shakllanishida din omili. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O'zbekistonda diniy qarashlarga munosabatning asosiy jihatlari. BMTning 72 sessiyasida diniy bag'rikenglik haqidagi rezolyusiyani qabul qilish haqidagi taklifning ijtimoiy siyosiy ahamiyati.

## **10-mavzu. Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar**

Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta'limotlar tarixi. Bahoiylik va qodiyoniylik harakatlari. Xalqaro Krishnani anglash jamoasi faoliyati. Baxshillochilar jamoasi. Soxta xristianlik harakatlari. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan norasmiy diniy jamoalar. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining yo'nalishlari. Islom hamkorlik tashkiloti, Islom konferensiyasi tashkiloti, fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha islom tashkiloti. Arab davlatlari ligasining maqsadi va faoliyatining yo'nalishlari. Islomiy banklar faoliyatining yo'nalishlari.

## **11-mavzu. Kiber makonda diniy e'tiqod targ'ibotining ijtimoiy xavfi**

Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullari. O'zbek tilida faoliyat yurituvchi ekstremistik jamoa va shaxslarning ijtimoiy hayotga salbiy ta'siri. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot ist'emoli madaniyatini tarbiyalashning zarurati. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati.

## **12-mavzu. Missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi**

Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Xristian dini missionerligi va islom dini missionerligi. Xalqaro missionerlik tashkilotlari va ularning targ'ibot usullari. Missionerlik targ'ibotida uslub va vositalarning zamonaviylashuvi: kiber makonda mafkuraviy tahdidlar. Missionerlik va prozelitizmning targ'iboti va ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat dinamikasi. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari. Missionerlik va prozelitizmning ma'naviy barqarorlikka tahdidi hamda uni oldini olishning mexanizmlari.

## **13-mavzu. Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizmning tarixi va yo'nalishlari**

Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari. Radikalizmning paydo bo'lishi sabablari va oqibatlari. Diniy radikalizmning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari. Sog'lom va ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan sof islomiy tushunchalarning g'arazli maqsadlarda talqin etilishining oqibatlari. Terrorizmning mohiyati va uning shakllari. Diniy shiorlar ostidagi terrorizm amaliyotining oqibatlari. Xalqaro terrorizmning mohiyati. Al-Qoida, ixvanul musulimin, ISHID, boko xaram tashkilotlarining dunyo hamjamiyati xavfsizligiga tahdidi, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O'zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta'siri: Turkiston islom harakati, akromiyalar, soxta salafiylik, vahobiylik, xizbut tahrir va nurchilik harakatlari tarixi, maqsadlari, ularga islom

tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari.

#### **14-mavzu. Dunyo hamjamiyatining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasi**

Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashi. Global terrorizmga qarshi global hamkorlikning yo'nalishlari: BMTning global antiterror strategiyasining asosiy yo'nalishlari: terrorizmning tarqalishi uchun qulay sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar, terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlatlarning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish salohiyatini kuchaytirish, inson huquqlari va qonun ustuvorligiga umumiy hurmatni ta'minlash. Shanxay hamkorlik tashkiloti va mintaqaviy antiterror tuzulmasi faoliyatining ahamiyati. O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi. O'zbekistonda diniy terrorizmga qarshi «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasining ahamiyati. geosiyosiy jarayonlarda diniy omilning aks etishi.

#### **15-mavzu. Duyoviy bilimlar va diniy e'tiqod birligiga erishishning ahamiyati**

Yangi O'zbekistonda dunyoviy va diniy ta'lim-tarbiyaga munosabat, diniy ta'limning yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida diniy ta'limni tashkil etishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. O'z o'zini boshqarish organlarida (mahalla) diniy ta'lim va tarbiyani tashkil etishning ahamiyati. Diniy ta'limning g'oyalari va usullari. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs komolotiga ta'siri. Duoning inson ongiga ta'siri va duoalar orqali siyosiy tilning shaxs dunyoqarashiga ta'siri. Insonning diniy jamoaga qo'shilishining psixologik jihatlari. Dinga estetik yondashish, diniy axloq, axloqiy qadryatlar va meyorlar dialektikasi. Iymon va e'tiqodning shakillanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri. Diniy poklaninsh - katarsisning ijtimoiy psixologik mohiyati. Texnogen sivilizatsiya davrida diniy e'tiqodni tarbiyalash va diniy matnlarni o'qishda hushyorlikni oshirishning zarurati. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning shaxs kamoloti va e'tiqod erkinligini taminlashdagi roli. O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati. Dunyoviy hayot va diniy qadryatlarning mutanosibliigi.

### **III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

#### ***Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***

1. Dinshunoslik fanining predmeti va funksiyalari.
2. Dinshunoslik metodologiyasi va dinlarning tasnifi
3. Din psixologiyasi ijtimoiy ahamiyati
4. Milliy dinlarning ijtimoiy taraqqiyot va shaxs e'tiqodini ta'minlashdagi roli
5. Buddaviylik va xristianlik dinining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri
6. Islom tafakkuri va madaniyatining shakillaninsh bosqichlari.
7. Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi
8. Islom huquqi va manbalari

9. Tasavvuf va hozirgi zamon
10. Islom inson ma'naviy madaniyatini tarbiyalash omillari haqida
11. O'zbekistonda diniy tashkilotlar va konfessiyalar faoliyati dinamikasi
12. Missionerlik va prozelitizmning diniy etiqodni tanlashga salbiy ta'siri.
13. Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizm xavfsizlikka tahdid
14. Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashining ahamiyati
15. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning jamiyat hayotidagi o'rni.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

##### *Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, diniy e'tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati.
2. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari.
3. Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi: tipologik, qiyosiy, tarkibiy-funksional, genetik tahlil. Qiyosiy dinshunosliklikning metodlari.
4. Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari.
5. Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar.
6. Zardushtiylikning teologik tizimi va diniy marosimlari.
7. Zardushtiylikda tabiatning ulug'lanishi.
8. Zardushtiylikning diniy iyerarxiyasi.
9. Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari.
10. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.
11. Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari.
12. Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar.
13. Roshid xalifalar hukumronligi davridagi islohotlarning mohiyati. Ummaviylar va abbosiylar hukumronligi davrida dinga munosabat.
14. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta'limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta'siri.
15. Esxatologiyaning mohiyati: qiyomat va oxirat dunyosi.
16. Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari.
17. Hanafiy mazhabi rivojida Markaziy Osiyo faqihlarining roli va hissasi.
- 18.** Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji.
- 19.** Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi.
- 20.** Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me'yorlarga moslashuvining ahamiyati.
21. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifi.
22. Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta'limotlar tarixi.

23. Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'rvonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati.
24. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot ist'emoli madaniyatini tarbiyalashning zarurati.
25. Missionerlik targ'botida uslub va vositalarning zamonaviylashuvi: kiber makonda mafkuraviy tahdidlar.
26. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari.
27. Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi.
28. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari.
29. O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi.
30. O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati.

## V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- dinning mohiyati, jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni, dunyoviy va diniy bilimlarning mutanosibligi, din va fanning o'zaro aloqasi, diniy ta'lim va dunyoviy ta'limning maqsadlari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi***;

- dinshunoslik fanini o'rganish orqali turli dinlarning mohiyati, ularning urf-odatlari va e'tiqodlari orasidagi farq va umumiylik, diniy va dunyoviy bilimlarning insonlarning bag'rikengligi va o'zaro hurmatini tarbiyalashdagi roli, jahon dinlari, e'tiqodlari va urf odatlari an'analari, diniy-axloqiy g'oyalarning tahlili; dinshunoslikning asosiy tushunchalari, funksiyalari, buddaviylik dini va uning g'oyalari; xristianlik dini tarixi va asosiy g'oyalar, katolik pravoslav dinining asosiy g'oyalari va yillardagi farqlar, protestantizm dinidagi plyuralizm, islom ta'limotiga oid qarashlar: sunniylik, shialik va xorijiyalar, ularning yo'nalishi va mohiyati; kalom ilmiga oid g'oyalar va mu'taziliylar maktabi munosabatlari; diniy fundamentalizm, ekstremizm, fanatizmni vujudga keltirgan manbalar va omillarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- diniy e'tiqodning mohiyatini maxalliy urf-odat, an'analarni tushunish, turli dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar bilan umumiy murosa qilish, ular bilan mulokot qilish madaniyati; din nomi bilan sun'iy boglangan ma'naviy tahdidlar, axborot xurujlariga qarshi kurashish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***.

## VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash
- interfaol keys-stadilar;
- blits- so'rov;
- guruhlarda ishlash;



- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

## **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston..2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon. Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
6. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. R – 341.
7. A.Azami. Vvedenie v xadisovedenie. Kazan: 2011
8. A.Fitrat. Tanlangan asarlar –Toshkent: Ma’naviyat, 2010 -301 b
9. Abu Xomid G‘azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019
10. Rumi J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. -Toshkent: Navruz, 2019
11. Abu Xomid G‘azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019
12. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. – Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020.
13. G‘oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2021.

14. David L. McMahan. The Making of Buddhist Modernism. – Oxfordshire: “Oxford University Press”, 2008.
15. Todd M. Johnson. Religious Adherents of the World by Continent and Region // Religions of the World: A Comprehensive Encyclopedia of Beliefs and Practices / J. Gordon Melton, Martin Baumann. – Oxford, England: “ABC CLIO”, 2010.

### **Axborot manbalari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

Fan dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ta‘lim sohalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashning 2023-yil -avgustdagi -sonli bayonnomasi bilan ma‘qullangan.

#### **Fan/modul uchun mas‘ullar:**

**Shermuxamedova N.A.** – O‘zMU, “Falsafa va ma‘naviyat asoslari” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, professor

**Madayeva Sh.O.** – O‘zMU, “Falsafa va mantiq” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, professor

**Muxammadjonova L.A.** – O‘zMU, “Etika va estetika” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor

**Jalilov B.X.** – O‘zMU, “Falsafa va ma‘naviyat asoslari” kafedrasini dosenti, falsafa fanlari nomzodi

**Komilov D.Z.** – O‘zMU, “Falsafa va ma‘naviyat asoslari” kafedrasini dosenti falsafa doktori PhD

#### **Taqrizchilar:**

**Nishonova O. Dj.** – O‘zMU “Falsafa va ma‘naviyat asoslari” kafedrasining professori falsafa fanlari doktori

**Ziyotov Shovosil** – Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi direktori, tarix fanlari doktori DSc, professor

**Alimova Maxfuza** – Uzbekiston xalqaro islom akademiyasi Dinshunoslik va jahon dinlarini o‘rganish YUNESKO kafedrasini mudiri, tarix fanlari nomzodi, dosent



